

“ILIADA” VA SHARQ EPOSLARIDA O‘XSHASH VA FARQLI JIHALTLAR

Ibragimova Madina

Urganch davlat Universiteti filologiya fakulteti

O‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq va G‘arb adabiyotiga mansub asarlar qiyoslangan. “Iliada” va Sharq eposlari bo‘lmish “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” dostonlari syujetlaridagi, shuningdek qahramonlar xarakterlaridagi tipologik jihatlar tahlilga tortilgan

Kalit so‘zlar: epos, “Iliada”, “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, mushtaraklik.

Annotation: This article compares works of Eastern and Western literature. The typological plots of the epics, as well as the characters of the heroes of “Iliada” and Eastern epics “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” are analyzed.

Adabiyot namunasi bo‘lmish eposlarni ikki xil tushunishimiz mumkin: birinchi galda badiiy adabiyot turi sifatida va ikkinchisi xalqning qahramonona o‘tmishini tasvirlovchi asar sifatida. Ulardan dastlab yuzaga kelgani bu xalq o‘tmishini tasvirlovchi eposlardir. Bunday eposlarning ilk paydo bo‘lgan namunalari sifatida antik davrga mansub bo‘lgan “Iliada” va “Odisseya” kabilarni ko‘rishimiz mumkin. Qadimiy epos namunalari faqat G‘arbda emas, balki Sharqda ham mavjud. Sharq eposlari qatoriga turkiy xalqlarga xos bo‘lgan “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon” kabilarni kiritamiz. Har ikki guruh eposlarida insoniyat uchun hamisha zarur bo‘lgan or-nomus tuyg‘usi, sodiqlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarini yanada chuqurroq anglay boramiz.

Bilamizki, “Iliada” mashhur yunon shoiri Homer tomonidan yozilgan va 24 ta qo‘shiqdan tashkil topgan jangnoma asardir. Asar qurilishida qadim yunon mif va afsonalari alohida o‘rin egallaydi. Bunday miflar asosan ma’bud va ma’budalar, yunon xalqiga homiy xudolar haqida. “Iliada”da ham jang davomida asar qahramonlariga homiy xudolar, ma’budlar o‘z yordamlarini beradi va ularni himoya qiladi. Sharq eposlarida esa sharq xalqlarining dini Islom dini bo‘lganligi sababli dastavval Alloh (Xudo), undan so‘ng qahramonlarga yordam berib qo‘llab - quvvatlaydigan pirlar, eshonlar kabi obrazlar bor.

G‘arb va Sharq eposlarida faqat yuqoridagi jihatdan emas, balki har tomonlama o‘xshash va farqli jihatlarini uchratamiz. Shu o‘rinda antik davr yunon adabiyotiga mansub “Iliada” va Sharq eposlarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rib chiqsak.

Qay bir eposni olmaylik undagi bosh qahramonlar favqulodda iste'dod egasi, haqiqiy botir yo'sinida tasvirlanadi. "Iliada"da shunday qahramonlardan biri - Axilles: "Oqibat Axill eng qudratli qahramon bo'lib ulg'aydi. U 6 yoshlik chog'idayoq vahshiy arslonlarni va to'ng'izlarni mahv eta boshladi, yeldek uchqur bug'ularga tozi itlarsiz quvib yeta boshladi. Axill shunchalik chaqqon va tez yugurar edi. Qurol ishlatishda ham Axillga teng keladigan pahlavon topilmadi". Sharq eposlaridan biri bo'lgan "Alpomish" da esa bunday g'ayritabiiy iste'dodlar Hakimbek -Alpomishda ko'zga tashlanadi: "Shunda Hakimbek 7 yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinchdan bo'lgan parli yoyi bor edi. Ana shunda Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'lga ushlab, yetti yashar bola ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Yoyni o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ining katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozi olamga ketdi. Buni eshitgan dushmanlar: "Bu bola nazar topibdi, bularga hech kim barobar bo'lolmaydi, yetti yashar bola shunday ish qilami?"-deb xafa bo'lib yotdi".

Ko'pchilik asarlarda xoh u xalq ijodiga xos bo'lsin, xoh yozma adabiyot namunalari bo'lsin hiylagar, xudbin bo'lgan obrazlar uchraydi. "Iliada" ham bundan mustasno emas. Unda hiylagar obraz Odisseydir: "Qarorgoh tayyor bo'lgandan keyin yunonlar muzokara olib borish uchun Troyaga Menelay bilan hiylagar Odisseyi elchi sifatida yubordilar". Sharq eposlaridan biri bo'lgan "Kuntug'mish"da esa bunday obraz bosh qahramon bo'lmish Kuntug'mishni aldab uning ayolini olib qochgan Azbarxo'jadir: "Karvonboshi Azbarxo'ja degan xasis, xudbin, razil kimsa edi. Qur'oni Karimni o'rtaga qo'yib Kuntug'mish bilan do'st tutinib, uning ayoli Xolbekaning husnini ko'rgach Kuntug'mishni ziyofatda mast qilib Xolbekani bandi qilib olib ketadi".

Sharq eposlarida e'tibor qiladigan yana bir jihati borki, bu balog'atga yetgan qizlarning turmushga chiqish masalasi. Odatda ixtiyor ularning o'zlarida qoldiriladi. Masalan, "Alpomish"da qalmoqlardan sovchi kelgan Barchinoyni ixtiyori o'zida ekanligini otasi Boysari aytadi: "Boysari turib aytdi: qiz o'n to'rtga chiqqan so'ng o'z ixtiyori o'zida qoladi". "Iliada"da bunday holat Yelena bilan bo'ladi: "Nihoyat, Tindarning taraddudda qolganini ko'rgan koshifkaromat qahramon Odissey o'rtaga chiqib, unga shunday maslahat berdi: -Mayli. Zulfi sunbul Yelena kimga turmushga chiqishini o'zi hal qilsin".

Yuqorida aytilganidek, yunonlarda insonlarni qo'llab-quvvatlovchi va taqdirni bashorat qiluvchi ma'bud va ma'budalar bo'lgan. Ularga mos ravishda Sharq xalqlariga nazar solsak pir va eranlarni ko'ramiz.

"Iliada"da: "Shu chog' Troya elining bashoratchisi Priamzoda Helen o'rtaga chiqdi va "Ma'budlar bizga madad bermoqchi, binobarin yunonlar bilan bo'ladigan urushdan qo'rqmanglar!"-deb aytdi.

“Alpomish”da: ”Singlisi bilan xo’shlashib yurtidan chiqqan Alpomishga Shohimardon pir va qirq chiltanlar hamisha homiylik qiladi”.

Qiyos qilinayotgan har qandaay narsalarning o’xshash jihati bo’lgani kabi, albatta farqli jihatlari ham uchraydi. ”Iliada” va sharq eposlari ham bu jihatdan mustasno emas. Bu farqli jihatni “Alpomish” eposi misolida ko’ramiz.

“Iliada”da: ”Palamed yunonlarga oqilona maslahatlar berardi...Yunonlar pahlavon Palamedni izzat qilishar va uning maslahatlariga quloq osishar edi”.

“Alpomish”da: “Shu majlisda bir Yartiboy oqsoqol degani bor edi.Majlisli kun bo’lsa, to’rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo’sag’aning oldida kavushga joy bermay kavush bilan aralashib, it yiqilish bo’lib, paygabetda yotar edi ... Yartiboy oqsoqolning aytgan so’zi o’n ming uyli qo’ng’irot elining katta-kichigining bariga ma’qul tushdi”.

Sharq xalqlari azaldan islom diniga e’tiqod qilib kelgan va faqat Alloh (Xudo)ga ishongan. Yunonlarda esa bilganimizdek ma’budlarga sig’inganlar. Uzoq safarga chiqish oldidan yoki biror bir ishni boshlash oldidan ulardan madad tilaganlar. Bu holatni Sharq eposlaridan “Ravshan” misolida ko’rsak: ”Hasanxon polvon mard emasmi, bolasiga qarab oq fotihani betiga tortib: - Bor, bolam, manglayingni Xudo ochsin! -deb qolaverdi”.

“Iliada”da esa :

“O, Atreyning o’g’illari, o, basavlat axey mardlari!

Madad bersin Olimp tog’in maskan etgan ma’budalar sizga “.

“Iliada”ga e’tibor qilsak quyidagi misralar uchraydi:

“Qushlar bilan fol ochishda tengi yo’q zot, donishmand Kalxas”.

“Dastlab u zahrin sochdi o’qraygancha masum Kalxasga”.

“Badxoh folbin, qachon sen ham ko’nglim xushlaysan,

Tokay anduh ulashasan, shum xabarlar urug’in sochib?”

“Alpomish”da ham haqiqatni aytib “mukofotlangan” obraz bor. Bu Ko’sa sinchi obrazidir: ”Bu so’zni eshitib Ko’kaldosh alpning achchig’i kelib: ”Mendan biror vaqtda sen jodirim bo’lib ...choqdan biror narsa olib ta’rif qilding “,- deb sinchining ikki ko’zini o’yib oldi “.

Ona va farzand o’rtasidagi mehr-muhabbat, o’zaro ishonch hech qachon zamon va makon tanlamaydi. Bu fikr isbotini “Iliada” va “Go’ro’g’lining tug’ilishi” eposida bir-biriga o’xshash tarzda uchratamiz.

“Iliada”da: Axillning onasi Fetidaga so’z qotishi:

“Oq sut bergan onasiga bo’zlab-bo’zlab qildi iltijo:

“Onajonim! Nahot meni foniy etib tug’ganing uchun

Olampanoh Zevs etmagan menga nasib izzat-u ikrom?”

Eposlarda qahramonlarning yorlariga ularning chiroyi uchun ko‘z olaytirish va olib qochish holatlari ham uchraydi. “Iliada”da Troya urushining boshlanish sababi ham shu aslida, ya’ni Menelayning zavjasi bo‘lmish Yelenani Paris olib qochadi:

“Ishonchini qozonganing va el-yurtning eng sohibjamol
Ayolini - nayzabardor Menelayning suyak qallig‘in
Olib qochib kelishga jahd qilganing taajjub g‘oyat”.

Bu holatni Sharq eposlaridan ikki tasida kuzatishimiz mumkin: birinchisi “Kuntug‘mish”da Azbarxo‘janing Xolbekani olib qochishi bo‘lsa, ikkinchisi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”da Rayhon arab Xoljuvonoyimni shunday olib qochadi.

Azal-azaldan asarlarda oshiq o‘z mashuqasi uchun nimadir qilish yoki oraga qo‘yilgan qandaydir shart bo‘lsa shunda g‘olib chiqish orqali yoriga erishgan. Bunday holat “Iliada”da va “Alpomish” da ham uchraydi.

“Iliada”da:

“Sohibjamol Yelena deb jang qilmoqchi yakkama-yakka
Xullas, ikki marddan kimki g‘olib chiqsa, o‘shal baxtiyor
Yelenaga hamda uning davlatiga bo‘lgaydir sohib...”

“Alpomish”da: “Barchin: mening to‘rt shartim bor. Shu to‘rt shartimni qilgan kishiga tegaman”.

Har bir qizning xoh hayotda bo‘lsin, xoh asarlarda bo‘lsin qo‘lidan keladigan qandaydir hunari bo‘ladi. Bu fazilat millat va zamon tanlamaydi. Solishtirayotganimiz “Iliada” va sharq eposlaridan “Ravshan”da ham bu holat uchraydi. Bundan tashqari har ikkala eposda ham qizlar bir xil joyda – ko‘shkda o‘tirish syujeti mavjud.

“Iliada”da:

“Endi gapni siz oqbilak Yelenadan tinglang: u ko‘shkda
Qo‘shqavatli nafis alvon mato to‘qib, unga janggohda
Jon olib, jon berayotgan axeylar-u troyaliklar
Jasoratin tasvirini tikar edi rangin zar ila...”

“Ravshan”da: “Qarasa, qirq zinalik ko‘shkning ustida Zulxumoroyim kanizlari bilan qalpoq sotib o‘tiribdi”.

Eposlarni o‘rganish jarayonida yana bir ahamiyatli narsa bu qizlarga hamroh bo‘luvchi kanizlar obrazidir. “Kaniz” deb atalish odatda sharqqa xos xususiyat. G‘arbda esa ko‘pincha “joriya” tarzida uchratamiz.

“Iliada”da:

“Pitey qizi- sadoqatli oqsoch Efra bilan shahlo ko‘z
Klimena - joriyalar ergashdi o‘z sohibasiga “.

Sharq eposlarida esa kanizak obrazlari deyarli barchasida mavjud: “Alpomish”da Barchinning kanizi Suqsuroy, “Ravshan”da Zulxumorning kanizi Oqqiz, “Rustamxon”da Huroyimning kanizagi Ximcha .

Adabiyotda 3, 7, 40 kabi sonlar ko'p uchraydi. Ayniqsa, Sharq eposlarida. Masalan, "Kuntug'mish"da qirq zinali ko'shk va qirq yigit, "Ravshan"da esa qirq zinali ko'shk tarzida mavjud.

"Kuntug'mish"da: "Kunlardan bir kun Xolbeka qirq zinali ko'shkning ustiga chiqib olamni tomosha qilib o'tirib edi". "To'ra qirq yigiti bilan daryoning yoqasida shikor qilib yurib edi".

"Ravshan"da: "Qarasa, qirq zinalik ko'shkning ustida Zulxumoroyim kanizlari bilan qalpoq sotib turibdi".

"Iliada"da esa: "Qirq yigitni xufiyona pistirmaga qo'ygan ekanlar".

Sharq xalqlarida azaldan yigit kishining yo'ldoshi otdir. Safarda ham, kundalik hayotda ham, jang-u jadallarda ham ot unga yordam bergan. Eposlarga nazar tashlar ekanmiz har bir qahramonning oti bor, uning yordami bilan duch kelgan qiyinchilig-u mashaqqatlarni bosib o'tadi. Masalan, Sharq eposlarida Alpomishning Boychibori, Ravshanning Jiyronqushi, Go'ro'g'lining G'iroti mavjud.

"Iliada"da ham jangga otlangan qahramonlarning oti bor. Ular ham turli ismlar bilan atalgan:

Shundan keyin u yuzlanib dedi o'zin tulporlariga:

"Tulporlarim Ksanf, Podarga, ma'budiy Lamp, haybatli Efon!

Parvarishlab boqqanimning hissalarini chiqaring bugun:

Aksar payt Etion qizi, mening Andromaxam

Berar edi sizlarga yem g'oyat nodir, xushta'm bug'doydan,

Yana, mendan - o'z navjuvon mahlubidan oldin, sizlarga

Sharob eltib yemga qorib berar edi siz xohlagancha!

Yuqoridagi misralarga e'tibor qaratsak, ularda otlarga murojaat qilish bor. Bunday murojaat qilish "Alpomish"da ham uchraydi. Farqli jihati undagi murojaat ayol kishi - Barchinoy tarafidan qilingan:

O'n ikki oy seni Boybo'ri boqdi,

Gardaningga Qaldirg'och qo'tos taqdi,

Yig'latamagin Barchin gulday bebaxtdi,

Qurru-yo qur, hayt-a, beginning oti!

Bilamizki, eposlarda hayotda ro'y bermaydigan holatlar ham ko'p uchraydi. Masalan, "Go'ro'g'lining tug'ilishi"da shunday voqea bor: "Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi. Shunda hazrati Xizr kelib sherni bir tarsaki urdi. Sher nimta-nimta bo'lib, tirqirab ketdi". Aynan bir tarsaki bilan o'ldirib qo'yish syujeti "Iliada"da ham bor, farqi esa unda tarsaki bilan hayvon emas, odam o'ldiriladi: "Bu badkirdorlikdan qattiq darg'azab bo'lgan Axill qulochkashlab turib Tersitning yuziga tarsaki uradi va shu bir zarba bilan uni o'ldirib qo'yadi."

Har ikkala Sharq eposlarida ham, “Iliada”da ham ma’lum yakunlanish bor, asarlar yakunida ham ba’zi o’xshash jihatlarni keltirib o’tish joiz. “Iliada”da ham “Alpomish”da ham qahramonlar yetti yillik azob-uqubatlar va kurashishlardan so’ng o’z yurtlariga qaytadi.

“Iliada”da: ”Nihoayt, yetti yil deganda axiyri u (Menelay nazarda tutilyapti) ham o’zining sohibjamol zavjasi Yelena bilan Spartaga yetib boradi. Er-xotin o’z vatanlarida yana ko’p yillar baxtiyor haayot kechirib, murod-maqсадlariga yetadilar”.

“Alpomish”da:

Kashal yurtga ketgan otang kelgandi,
Yetti yil Qalmoqda bandi bo’lgandi,
Omon-eson undan ozod bo’lgandi,
Eli yurtin hozir kelib ko’rgandi,
Inshoollo, ko’rarmiz shunday polvondi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.Homer “Iliada”.”Ilm-ziyo-zakovat”.Toshkent-2020, 21-30-31-32-35-37-38-47-96-98-99-100-125-211-603-620-betlar.
- 2.H.A.Narimov “Adabiyot “ 2-qism.Urganch-2019.
- 3.Umumiy o’ rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua.”Sharq” nashriyoti.Toshkent-2017, 138-140-144.
- 4.Umumiy o’ rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2019, 14-24-betlar.
- 5.O’ rta ta’lim muassasalarining 10-sinfi va o’ rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o’ quvchilari uchun darslik-majmua.Toshkent-2017, 12-bet.
6. O’ rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o’ rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o’ quvchilari uchun darslik-majmua.Toshkent-2018, 26-36-betlar.
- 7.”Alpomish” Fozil Yo’ ldosh o’ g’li varianti. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2016.